

“FUNUN UL-BALOG‘A” ASARIDA LIRIK JANRLAR TASNIFI

Saydazzamova Chamangul Olimjon qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada turkiy adabiyotda ilk nazariy qo'llanma hisoblangan “Funun ul-balogs‘a” asarida kelgan janrlar tasnifi, muallifning kichik lirik janrlarga bo'lgan munosabati, jumladan, qit'a, ruboiy va tuyuq kabi janrlarning klassifikatsiyasiga doir ba'zi mulohazalari haqida so'z yuritilib, adabiy janrlar masalasiga diqqat qaratilgan.

Kalit so'zlar: “Funun ul-balogs‘a”, lirik janrlar, qit'a, tajnis, tuyuq, masnaviy, bahr, ruboiy.

ANNOTATION

This article discusses the classification of genres in the work "Funun ul-baloga", which is considered the first theoretical manual in Turkish literature, the author's attitude to small lyrical genres, including some of his comments on the classification of genres such as qu'a, rubaiy and tuyuk, and focuses on the issue of literary genres.

Keywords: "Funun ul-baloga", lyrical genres, qu'a, tajnis, tuyuk, masnavi, bahr, rubaiy.

KIRISH

Shayx Ahmad Taroziyining “Funun ul-balogs‘a” asarida qator lirik janrlarga oid ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, bu haqda muallifning o'zi shunday yozadi: “Bilgilkim, majmu-i shuaro istilohinda she'rning aqsomi, ulkim mo'tabardur, o'n nav kelibtur: qasida, g'azal, qit'a, ruboiy, masnaviy, tarje', musammat, mustazod, mutavval, fard. Bu o'n nav she'rkim, zikr qilduq...”¹ Bundan ko'rindan, Taroziy “she'rning aqsomi” haqida, ya'nikim, she'r qismlari haqida so'z yurita turib, turlarini o'nta deb sanab o'tadi. E'tiborlisi shundaki, Shayx Ahmad bu o'rinda ushbu o'n turni ketma-ketlik asosida tasniflaydi va ularning o'ziga xos jihat hamda xususiyatlariga alohida urg'u berib o'tadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Muallif she'r turlari orasida qasida janriga to'xtalar ekan, bu turning yigirma yetti misra yoxud undan kamroq bo'lishini bayon qiladi. Shuningdek, qasida janrida madh etilayotgan shoh yoki biror kishining qanday xususiyatlari qalamga olinishi haqida ham Taroziy o'z fikrlarini bildirib o'tadi. Shayx Ahmad qasidaga xos to'rt

¹ Шайх Аҳмад Ибн Ҳудойдод Тарозий. Фунуну-л-балога. ("Балогат илмлари") Масъул мухаррир: Б.Ҳасанов. – Т.: Ҳазина, 1996. 32-б.

sifatni sanaydi. Bulardan birinchisi – husni matlaning mavjudligi. Ikkinchisi – madh etiluvchining aql-u insofini tilga olish, uchinchi sifat – shijoatini zikr qilish hamda to‘rtinchisi – saxovatini yod aylash. Muallif bu o‘rinda quyidagi fikrlari bilan bu to‘rt sifatdan tashqari boshqa jihatlarga to‘xtalib o‘tish shoirning o‘z izmida ekanligiga ishora qilib o‘tadi: “...va bu to‘rt xislattin ortuq har nechakim sifat qilur, ixtiyor shoирg‘adur”². Tahlillardan ma’lum bo‘ladiki, Shayx Ahmad Taroziy yashagan va ijod qilgan adabiy muhit qasida yozish yuqorida shoir sanab o‘tgan asosiy to‘rt talabga asoslangan. Qo‘sishimcha sifatidagi jihatlarni esa shoirlar ixtiyoriga ko‘ra, o‘z qasidalariga qo‘shib ketaverishgan. Muallif shunday turdagি shoirlarni ham misol tariqasida keldiradiki, ular qasidaning to‘rtta asosiy tartibiga amal qilmaydilar. Ahmad Taroziy bu tur shoirlarning qasidani madh bilan boshlashini Rashididdun Vatvot qasidasi misolida ko‘rsatib ketadi.

Qasida haqidagi Taroziyning ilmiy bayonida faqatgina ushbu janrga oid qarashlarini keltiribgina qolmasdan, qasida tarkibida keluvchi badiiy san’atlar haqida ham adabiyotimiz uchun kerakli ma’lumotlarni bayon etadi. Jumladan, baroati istehlol san’ati haqida qimmatli fikrlar aynan “Funun ul-balogs‘a” asarida keltiriladi. Ma’lumki, bu san’at arab tilidan olingan bo‘lib, “baroat” – “bir sohada ustunlik”, “istehlol” – “yangi oyni ko‘rish talabi” degan ma’noni anglatadi.

Ushbu san’at asarning qaysi mavzuga bag‘ishlanganiga ishora qilishga asoslangan badiiy san’atlardan bo‘lib, bunda o‘quvchi muallifning asar debochasi; masnaviy, qasida yoki marsiya avvali, kitobning bob va fasllari boshida kiritgan so‘z hamda fikrlaridan asar va uning muayyan bobining mavzusi, mundarijasi yoki asosiy mazmunini bilib olish imkoniga ega bo‘ladi³.

Shayx Ahmad Taroziy bu san’atni shunday sharhlaydi: “Matlada bir san’ate bo‘lur, oni baroat-i istehlol derlar. Aningtek bo‘lurkim, musanniflar nusxasining avvalinda bir necha lafz keltururlarkim, ul alfoz dalili mutlaqdur maqsudqa. Ya’ni andin ma’lum bo‘lurkim, bir nusxa qaysi fandadur, netokkim bu kitobning bu kitobning avvalinda kelibtur va shoir ham qasidani yo manzum qissani maqsudqa aytur bo‘lsa, matlada lafze istemol qilurkim, arz va murodi ma’lum bo‘lur”⁴. Bu fikrlardan ham ma’lum bo‘ladiki, biror janrning mazmunini, ya’ni Taroziy aytganidek, qasida yoki manzum qissanining masadi matlada keltirilgan baroati istehlol san’ati orqali ochiladi. Umuman olganda, Taroziy har bir janrning xususiyatlariga to‘xtalar ekan, har jihatdan mukammal tahlilga tortadi.

² Шайх Аҳмад Ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға. (“Балоғат илмлари”) Масъул мухаррир: Б.Ҳасанов. – Т.: Ҳазина, 1996. 33-б.

³ Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018. 429-b.

⁴ Шайх Аҳмад Ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға. (“Балоғат илмлари”) Масъул мухаррир: Б.Ҳасанов. – Т.: Ҳазина, 1996. 36-б.

Taroziy she’rning 3-turi sifatida qit’a janri xususiyatlariga diqqat qaratadi. U qit’a sharhiga to‘xtalar ekan, bu janrning dastlabki misrasida qofiya bo‘lmasligini, eng kichik hajmi ikki baytdan iborat bo‘lishi qayd etadi. Misol tariqasida esa o‘zining va bir qator ijodkorlarning ijod namunalaridan keltiradi.

“Funun ul-balogs‘a”da Lutfiy ijodidan keltirilgan misolga diqqat qarataylik:

Bermagil derlar vafosizg‘a ko‘ngul,
Kim aning no‘shidin ortiq neshi bor.
Men tama’ kesmasmen, o‘lsam, la’lidin,
Jon mening jonom, kishining neshi bor.

E’tibor qaratilsa, qofiyaga olingan so‘zlar tajnisli, ya’ni omonim so‘zlardan iborat. Shakldosh so‘zlarning qofiyaga olinishi asosan, tuyuq janriga oid xususiyat hisoblanadi. Yuqorida Lutfiy ijodidan olingan namuna qofiyasi shakldosh so‘zlardan tashkil topgan bo‘lib, 2-misra tarkibida kelgan “nesh” so‘zi “nish, tig” ma’nosida “bor” so‘zi bilan bирgalikda “nishi bor” anglamida qo‘llanyapti. 4-misradagi “neshi bor” birikmasi esa “nima ishi bor” ma’nosini anglatib kelgan. Bir qarashda tuyuq janrini eslatadigan bu kabi bir qancha misollarni Ahmad Taroziy qit’a janri ruknida berib o‘tadi. “Funun ul-balogs‘a”ning aynan mana shu qit’a janrida ko‘rsatilgan misollarning deyarli barchasida tuyuq janriga oid xususiyatlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ahmad Taroziy she’riy bilimlarning egasi sifatida bu kabi namunalarni qit’a janriga kiritishiga sabab bizningcha shoir yashagan davrdagi adabiy muhitda tuyuq janri to‘liq takomilga yetmagan, mustaqil janr sifatida shakllanib ulgurmaganligidadir. To‘g‘ri bu davrda tuyuq janri umuman yo‘q emas edi, ammo to‘laqonli spetsifik janr sifatida taraqqiy etmagan edi. Bu jihatga ko‘ra, Taroziy qit’a janri ichida tuyuqqa oid namunalarni ham berib o‘tadi. Mirzo Boysung‘ur ijodidan ketirilgan quyidagi namunada ham tajnisli qofiyaga duch kelamiz:

Furqatingda sorig‘ o‘ldi olmangiz;
Ey musulmonlar, yaroqon o‘lmasun.
O‘limgimdin fikrim oncha yo‘qtutur;
Qo‘rqaram, o‘lsam, yaro qon o‘lmasun.

Taroziy ruboiyga oid mulohazalari orasida tuyuq janriga qisqacha to‘xtalib, shunday fikrlarni bildiradi: “Va ruboiyning bir navi taqi bo‘lur. Oni mujannas derlar. Aningtek bo‘lurkim, ruboiyning qofiyasinda tajnis rioyat qilurlar. Misoli bu tarz:

To ko‘ngulda ishq o‘ti tobandaladur,
G‘am maishat panjasin tobandaladur.
Kiprik o‘qin qismat etib otsangiz,
Hech kishiga tegmas ul-tobandaladur.

Va bu turk shoirlarining ixtirosidur. Muni turklar tuyuq derlar”⁵

Taroziy ruboiy deya nom bergan ushbu she’rning bиринчи misrasidagi “tobandadur” so‘zi rosa tobida ma’nosida kelgan. Ya’niki oshqining ko‘nglidagi ishq rosa tobiga yetgan. Ikkinchи misrada qatnashgan “tobandadur” so‘zi esa “topish” ma’nosida qo’llangan (“G‘am maishat panjasini topadi”) va to‘rtinchi misradagi “tobandadur” so‘zi “tomondadir” (“Kiprik o‘qin qismat etib otsangiz, hech kimga tegmas u tomondadir”) ma’nosida kelganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ma’lumki, ruboiy va tuyuq janri ayrim jihatlariga ko‘ra bir biriga o‘xshab ketadi. Bu jihatlar ikki janrning to‘rt misradan iborat bo‘lishi va qofiyalanish tartibi a-a-a-a yoxud a-a-b-a tarzida bo‘lishi bilan umumiylikni hosil qiladi. Ammo vazn talabiga ko‘ra ular bir-biridan farq qiladi. Ruboiy hazaj bahrining axram va axrab shajaralarida yozilsa, tuyuqning vazni qat’iy: ramali musaddasi mahzuf (yoki maqsur) vaznida, ya’ni “foilotun-foilotun-foilun (yoki foilon)” tarzida bo‘lishi shart. Shuning bilan birgalikda, tuyuqda qofiyaga olingan so‘zlarning tajnisli bo‘lishi bu janrning xarakterli xususiyatlaridan biridir. Shu jihatdan olib qaraganimizda qofiyaning tajnisli bo‘lishiga ko‘ra yuqoridagi namunalarni tuyuq deb ataganimiz to‘g‘riroq bo‘ladi.

Shayx Ahmad Taroziyning o‘zi ham ruboiyning bu turini turkiylar tuyuq deb atashi haqida qisqcha to‘xtalib, uch xil misol keltirib o‘tadi: “Va bu turk shoirlarining ixtiroidur. Muni turklar tuyuq derlar. Misoli digar:

Ishqsiz uzdi yurakim yog‘ini;
Yer yuzin tutti ko‘zumda yog‘ini.
Sirri dilni ko‘z yoshi fosh ayladi.
Asramishmen o‘z ko‘zumda yog‘ini”⁶.

Muallifsiz berilgan ijod namunalari Taroziyning o‘z qalamiga mansub degan taxminiy fikrlarga ko‘ra, ushbu tuyuq ham balki Shayx Ahmadga tegishli bo‘lishi mumkin. Sababi yuqorida ta’kidlangani kabi ushbu tuyuqning muallifi “Funun ul-balogs‘a”da aks etmagan. Ammo bundan keyin kelgan ikkita tuyuq namunasi mualliflari bilan birga keltiriladi. Jumladan, Muhammad Temur Bug‘rodan tuyuqning yetuk namunasi beriladi:

Gar havoyi vasli dilbar dori der,
Yo‘lda tik mishlar muhabbat dori der.
Sen agar chun oshiqi sodiq esang,
Bu muhabbat dorini bir dori der.

⁵ Шайх Аҳмад Ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балога. ("Балогат илмлари") Масъул мухаррир: Б.Ҳасанов. – Т.: Ҳазина, 1996. 41-б.

⁶ Шайх Аҳмад Ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балога. ("Балогат илмлари") Масъул мухаррир: Б.Ҳасанов. – Т.: Ҳазина, 1996. 41-б.

Mazkur tuyuqning tajnisli qofiyasiga olingan dor(i) so‘zi birinchi misrada “o‘limga mahkum etilgan kishini o‘ldirish uchun yasalgan maxsus qurilma” ma’nosini, ikkinchi misrada “arqon, ip” ma’nosini va to‘rtinchi misrada “kasallikni davolash uchun ishlatiladigan modda, dori-darmon” ma’nosini ifodalab kelgan.

“Funun ul-baloga”da tuyuq sifatida keltirilgan uchinchi misol Hoji Aqcha Kindiy qalamiga mansub:

Bergil, ay simin zaqan, ilik manga.

Necha yoshi bo‘lg‘asen? Ilik manga.

Dardingiz darmoni jonimdur mening;

Sog‘inurlar bilmagan ilik manga.

Adabiyotshunos olim Abduqodir Hayitmetov ushbu tuyuqdagi “ilik” tajnisli so‘zini quyidagicha izohlaydi: “Bu tuyuqda “ilik” – “qo‘l”, ikkinchisi – “ellik”, uchinchisi – “egili” ma’nolarida kelgan ko‘rinadi”⁷. Shu misol bilan Ahmad Taroziy tuyuq haqidagi o‘z fikrlarini yakunlaydi.

Lirik janrlarning beshinchi turi sifatida “Funun ul-baloga”da masanviy haqida so‘z boradi. Shayx Ahmad masnaviyning ikki misradan iborat bo‘lishini va bu ikki misra bir-biri bilan o‘zaro qofiyadosh bo‘lishini, shuningdek, nazmiy qissalarda masnaviydan foydalanilishini qayd etadi. Xususan, bu haqida Taroziy o‘z asarida shunday deydi: “Masnaviy ikki misra bo‘lur. Ikkalasi muqaffo, netokkim manzum qissalarni masnaviy qilibturlar. Misoli Bu Nasaqdin

Alo, ey husn elining podshohi,

Jamoling oyati lutfi ilohiy.

Yuzingdur lola, qadding sarvi ozod,

Erur usruk ko‘zung joduyi ustod.

Yuzing uzra qaro zulfung balodur,

Tilarmen bo‘lsa ul yuzdin malodur.

Raqibi orzular yuzi qiroqin;

Tilar o‘ziga ul yuzi qaroqin”⁸

Masnaviy haqida so‘z borar ekan Ahmad Taroziy forziyzabon shoirlar ijodidan ham misolliar keltiradi. Ular orasida Mavlono Rumiy, Abulqosim Firdavsiy, Shayx Sa’diy, Shayx Attor singari jahon mumtoz ababiyotida o‘z o‘rniga ega shoirlar ijodidan misollar keltirilishi masnaviyning xususiyatlarini yanada to‘la ochib berishga xizmat qilgan deyishimiz mumkin.

⁷ Шайх Аҳмад Ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балога. ("Балогат илмлари") Масъул мухаррир: Б.Ҳасанов. – Т.: Ҳазина, 1996. 42-б.

⁸ Шайх Аҳмад Ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балога. ("Балогат илмлари") Масъул мухаррир: Б.Ҳасанов. – Т.: Ҳазина, 1996. 42-б.

Shayx Ahmad Taroziy masnaviyining imkoniyatlaridan biri deya, agar bir hikoyat nazm shaklida bitiladigan bo‘lsa, boshlanish va xotimasi qisqa so‘z bilan ifodalanishi shart va lozimligini ta’kidlaydi. Ushbu fikrlarning tasdig‘i sifatida Taroziy fors adabiyotidan misol va namunalar keltiradi. “Funun ul-balogs‘a”da Taroziy biror janr xususiyatlarini yoritar ekan, namunalarni keltirishda turkiy va forsiy adabiyotdan teng foydalanganligiga ham amin bo‘lamiz. Masnaviy uchun keltirilgan misollar orasida forsiy va turkiy adabiyotning go‘zal namunalari keltirilgan bo‘lib, ular orasida uzoq yillar davomida Lutfiyga nisbat berilgan “Gul va Navro‘z” asarining haqiqiy muallifi Haydar Xorazmiydan ham misollar keltiriladi. Quyidagi misol aynan “Gul va Navro‘z” asaridan olingan masnaviyining go‘zal namunasidir:

Tuman o‘ltirdi-yu bo‘ldi havo sof;
Cherik tutti jahonni Qof to Qof.
Xurush etti kevurg‘a, ko‘krodi ko‘s,
Urub chavgon duhulning yuzina bo‘s.
Nafir-u burg‘u-yu tug‘-u naqora –
Dilovarlar yurokin qildi pora.
Yasodi tog‘ yang‘lig‘ o‘ngni, so‘lni.
Xirovul turg‘uzub, to‘qtotti g‘ulni,
Hamajiyilar qo‘ydi va berkitti qunbil,
Qaro tog‘dek yasab turdi muqobil.
Bahodirlar uni, otlar xurushi –
Falak to kar qilur, Mirrix go‘shi⁹.

Shayx Ahmad Taroziyning Haydar Xorazmiy bilan bir davrda yashab ijod qilganligini hisob olganda, muallifning “Gul va Navro‘z” asari muallifini aniq keltirishi bu asar Lutfiyga tegishli degan fikrlarni yo‘qqa chiqaradi.

XULOSA

Umuman olganda, Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogs‘a” asarida biz faqatgina lirkjanrlar haqida nazariy ma'lumotlarga ega bo‘lib qolmasdan, turli ijodkorlar va ularning ijod namunalari bilan ham tanishish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Asarda keltirilgan lirkjanrlar orqali XV adabiy muhiti va bu davrdagi ijodiy masalalar nilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

⁹ Шайх Аҳмад Ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балога. ("Балогат илмлари") Масъул мухаррир: Б.Ҳасанов. – Т.: Ҳазина, 1996. 44-б.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018. – 520 b.
2. Шайх Аҳмад Ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға. ("Балоғат илмлари") Масъул мұхаррір: Б.Хасанов. – Т.: Хазина, 1996. – 212 б.